

G'iyosiddin Naqqoshning "Xitoy safari kundaligi"

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlat muzeyi ilmiy jamoasi tomonidan G'iyosiddin Naqqoshning "Xitoy safari kundaligi" nashr etildi.



Ushbu kitob nashri «Temuriylar davri manbalarida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi» mavzusidagi innovatsiya loyihasi doirasida amalga oshirildi.

G'iyosiddin Naqqoshning Xitoy safari kundaligi Temuriylar davlatining xalqaro munosabatlari tarixi hamda Xitoy haqida yozilgan nodir manbalar sirasiga kiradi. Unda XV asr birinchi yarmida Maraziy Osiyo bilan Xitoy o'rtasidagi qadimgi Buyuk ipak yo'lining qayta tiklangan tarmoqlari orqali to poytaxt Pekingacha savdo-elchilik karvonlari harakati, ushbu yo'ldagi shaharlar, elchilarni qabul qilish masrosimlari, imperator saroyi hashamati, xitoy xalqining madaniyati kabilar haqida muhim tafsilotlar aks etgan.